



FARMATSEVTIK OMILLAR: DORI VOSITALARINING FIZIK HOLATINING ULARNING DORI SHAKLLARIDAN AJRALIB CHIQUISH TEZLIGIGA TA'SIRI MAVZUSIDAGI LABORATORIYA MASHG'ULOTINI O'TKAZISHDA PEDAGOGIC TEXNOLOGIYALARI QO'LLASH

Д.Б.Касимова

EMU University, 2.Ташкент, Ўзбекистон

e-mail: kasimova.dilafruz@mail.ru

Kirish. Turli xil dori vositalaridan dori moddasining ajralib chiqishini baholashda dori vositalarining fizik holatining ularning dori shakllaridan ajralib chiqish tezligiga ta'sirini o'rganadigan bir qator usullar ishlab chiqib amaliyotga taqdim etilgan.

Farmatsevtik omillar: dori vositalarining fizik holatining ularning dori shakllaridan ajralib chiqish tezligiga ta'siri, ularni sifatini tegishli MH asosida sifatini baholashni o'zlashtirish muhim hisoblanadi.

Maqsad: laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda pedagogic texnologiyalarni qo'llash.

Usullar: "Aqliy hujum", "FSMU" uslubi.

Natijalar: "FSMU" metodi talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosa chiqarish, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga yumshoq dori shakllarini yaratish zarurligini aniq va qisqa holatda ifoda yetib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. "FSMU" metodi O'tkazilish tartibi:

1. Har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi: F- fikringizni bayon eting, S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating, M- ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring, U-fikringizni umumlashtiring.

2. O'quvchilar bilan bahs mavzusini yoki muammoni belgilab olinadi:

A). Kichik guruhlariga bo'lib, tarqatilgan qog'ozlarga fikr va misollar yoziladi;

B). Kichik guruhlarini yozgan fikrlarini o'qib himoya qilinadi;

C). O'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi .

Nazorat savollairning muhokamasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Aqliy hujum" uslubidan foydalanib o'tkaziladi.

Nazorat savollari sidatida quyidagilarni qo'llash mumkin:



1. Biofarmatsiya atamasining ma'nosi nima?
2. Farmatsevtik omillar to'g'risida tushuncha bering?
3. Dori vositalarining fizik holatining ularning dori shakllaridan ajralib chiqish tezligiga ta'sirini misollarda tushuntiring
4. Oshqozon-ichak sistemasidan dori vositalarini so'rilish tezligiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Dori vositalarining biosamaradorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
6. Biofarmatsiya fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Dori vositalarning biotransformatsiyasi deganda nima tushuniladi?
8. Dori vositalarning biosamaradorligiga yordamchi moddalar qanday ta'sir etadi?

Xulosa: Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda pedagogic texnologiyalarni qo'llash talabalarning ijodiy faolligini oshiradi, mustaqil fikrlab qaror qabul qilishga undaydi va shu orqali mavzuni o'zlashtirish natijalarini amaliyotga tadbiiq qila olish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga ma'shg'ulotni o'zlashtitish ko'rsatkichlarini ijobiy tarafga sezirarli o'zlashtirishga olib keladi.